

## KALIFORNIYA CHUVALCHANGIDAN OLINGAN EKSTRAKTNING IMMUN SISTEMASINING BUZULISHINI OLDINI OLİSH PARAMETRLARINI BAHOLASH

Z.A.Nurova

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasi mudiri, dots.

**Urazova Zarina Urmanovna**

**Hamidbayeva Mushtariy Nodirovna**

**Tog'ayeva Guljahon G'ayrat qizi**

**Islomov Ravshan Sherali o'g'li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

*Kaliforniya qizil chuvalchangi yer yuzida o'ziga xos sisfatli biogumusda, fan taraqqiyotida, uning ta'sirining virusologik, immunologik, mikrobiologik ko'rsatkichlarini aniqlashda o'stiriladi, tajriba o'stirish va undan dori olishga asoslangan. Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan zardob organizmning immun sistemasiga ham o'z tasirini o'tkazadi ya'ni, organizmning immun sistemasini kuchaytiradi va bir meyorda ushlab turadi. Tajriba tariqasida Oltinsoy tumanidagi "Chep" va "Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini misolida ko'rishimiz va kuzatishimiz mumkin.*

**Kalit so'zlar:** Immunited, Kaliforniya qizil chuvalchangi, Immunited tanqisligi, Tibbiyot reagentlari, Tibbiyot reaktivlari, OITS, OIV, Virus, Qon, Leykotsit va eritrotsit, Bemor.

### АННОТАЦИЯ

*Калифорнийский красный червь выращивается на земле в биогумусе уникального качества, в развитии науки, в определении вирусологических, иммунологических, микробиологических показателей его действия, на основе опыта выращивания и получения из него лекарств. Сыворотка, полученная из калифорнийского красного червя, оказывает влияние на иммунную систему организма, то есть укрепляет иммунную систему организма и поддерживает ее на нормальном уровне. В качестве эксперимента мы можем видеть и наблюдать на примере схода граждан микрорайонов «Чеп» и «Гулестон» в Алтынсайском районе.*

**Ключевые слова:** Иммунизированный, Калифорнийский красный червь, Иммунодефицит, Лекарственные реагенты, Медицинские реагенты, СПИД, ВИЧ, Вирус, Кровь, Лейкоциты и эритроциты, Больной.

## KIRISH

Immun sistemasi organizmni kasalliklardan himoya qiluvchi biologik jarayonlar tarmog‘idir. U viruslardan tortib parazit chuvalchanglarga qadar turli xil patogenlar, shuningdek, saraton hujayralari, hatto yog‘och qirindilarigacha taniydi, ularga immunologik javob qaytaradi va ularni organizm sog‘lom to‘qimalaridan ajratib turadi. Ko‘pgina biologik turlarda immun sistemasi ikkita asosiy kichik guruhdan iborat. Tug‘ma immun sistemasi xilma-xil holatlar va ta’sirlarga oldindan shakllantirib qo‘yilgan immun javoblar orqali himoyani ta’minlaydi. Adaptiv immun sistemasi oldin o‘zi duch kelgan molekulalarni osonlik bilan tanib olish orqali keyingi har bir stimulga moslashtirilgan javob qaytaradi. Ikka sistemalar ham o‘z funksiyalarini bajarish uchun molekulalar va hujayralardan foydalanadilar.

Deyarli barcha organizmlar qaysidir bir turdag'i immunitetga ega. Bakteriyalar virusli infeksiyalardan himoya qiluvchi fermentlar ko‘rinishidagi rudimentar immunitetga ega. Boshqa sodda immun mexanizmlari qadimgi o‘simgiliklar va hayvonlarda rivojlangan va ularning zamonaviy avlodlarigacha saqlanib kelmoqda. Ushbu mexanizmlar fagotsitoz, defensin deb ataladigan antimikrob peptidlar va komplement tizimini o‘z ichiga oladi. Jag‘li umurtqalilar, shu jumladan odamlar, yanada murakkab mudofaa mexanizmlariga, patogenlarni yanada samaraliroq aniqlashga adaptatsiya qilish qobiliyatiga ega. Adaptiv (yoki orttirilgan) immunitet immunologik xotirani hosil qiladi, bu esa xuddi shu patogen bilan keyingi to‘qnashuvlarga kuchliroq javob berish imkonini beradi. Shu kabi orttirilgan immunitet jarayoni emlashning asosini tashkil etadi.

Immun sistemasining disfunksiyasi autoimmun kasalliklar, yallig‘lanish kasalliklari va saratonga olib kelishi mumkin. Immunitet tanqisligi immun sistemasi odatdagidan kuchsiz bo‘lganida yuzaga keladi, natijada takroriy va hayot uchun xavfli infeksiyalar yuqishi mumkin. Odamlarda immunitet tanqisligi og‘ir kombinatsiyalangan immunitet tanqisligi kabi irsiy kasallik, OIV / OITS kabi orttirilgan kasalliklar yoki immunosupressiv dorilarni qo‘llash natijasida kuzatilishi mumkin. Autoimmunitet giperaktiv immunitet tizimining normal to‘qimalarga xuddi begona organizmlarga hujum qilishi kabi javobi natijasida yuzaga keladi. Keng tarqalgan autoimmun kasalliklarga Hashimoto tiroiditi, revmatoid artrit, 1-tur qandli

diabet va tizimli qizil yuguruk kiradi. Immunologiya immun sistemasining barcha jihatlarini o'rganadi.

Immunitet tanqisligi immun sistemasining bir yoki bir nechta tarkibiy qismlari nofaol bo'lganda yuzaga keladi. Immun tizimining patogen mikroorganizmlarga javob qaytarish qobiliyati yoshlarda va qariyalarda kuchsiz bo'ladi, immun qarish tufayli immun reaksiyalari taxminan 50 yoshdan keyin pasaya boshlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda semirish, alkogolizm va giyohvand moddalarni iste'mol qilish immunitetning zaiflashishiga sabab bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda to'yib ovqatlanmaslik immunitet tanqisligining eng keng tarqalgan sababidir. Yetarli oqsilga ega bo'limgan ovqatlar hujayraviy immunitet, komplement faolligi, fagotsitlar funksiyasi, IgA antitanalari konsentratsiyasi va sitokin ishlab chiqarishning buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, erta yoshda ayrisimon bezning genetik mutatsiyasi yoki jarrohlik yo'li bilan olib tashlanishi og'ir immun tanqisligi va infektsiyaga yuqori moyillikka olib keladi. Immun tanqisligi irsiy yoki "orttirilgan" bo'lishi mumkin. Og'ir kombinatsiyalangan immunitet tanqisligi kam uchraydigan irsiy kasallik bo'lib, ko'p sonli genetik mutatsiyalar natijasida funksional T va B limfotsitlari rivojlanishining buzilishi bilan tavsiflanadi. Fagotsitlarning patogenlarni yo'q qilish qobiliyati pasaygan holatga irsiy yoki tug'ma immun tanqisligi hisoblangan surunkali granulomatoz kasalligi misol bo'ladi. OITS va saratonning ayrim turlari orttirilgan immun tanqisligini keltirib chiqaradi.

Chuvalchangdagi reporativ xususiyatning fiziologik va patologik jarayonlarini ko'rib chiqsak, kasallikni davolashda ta'sir darajasi yuqori ekanligini, hatto odamning ichki organlarining somatik hujayralariga ta'sir qilish orqali ham yoshartirish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Hujayralar, to'qimalarni tiklaydi, viruslarni mag'lub qiladi va viruslar darajasini aniqlaydi. Inson tanasiga suyuqlik kiritish uchun maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Tajriba maydonimiz Oltinsoy tumininning "Chep" va "Guliston" mahallasi bo'lib, ozuqaga boy bo'lgan biogumus yetishtirish bilan bir vaqtida odam kasalliklari uchun etilib qolgan kaliforniya qizil chuvalchangini ajratib olinadi, fiksatsiya qilinadi, so'ng filtratsiyadan o'tkazilib qurutkich shkafga qo'yiladi. Qizil chuvalchang 48 soat pechda qurigandan so'ng maxsus asbob orqali tuyiladi va un xolatiga keltiradi. Bu namuna 12 mg olinib kolbaga solinadi ustidan kerakli bo'lgan reaktivlar qo'shiladi va termostatga qo'yiladi. Temostatda sterilizatsiya qillinganga gelment suyuqligi tarkibiga gelmentdan olingan qon suyuqligi qo'shiladi va u sentrafugalananadi.

Bu namunadan olingan zardobni immunologic tekshiruvdan o'tkaziladi va odamning immune tizimiga tasir darajasi o'rganiladi. Bu tajriba asosi shuni

ko'rsatdiki odam kasalliklarga qarshi kurashishda 11 xil kasalliklarni oldini olishdagi zardob tayyor bo'lganini ko'ramiz va patologik belgilarni kuzatamiz. Bu zardob "NURZAM" virusli infektion kasalliklarni oldini olishda gepatit-a gepetit-b infektsiyasini oldini olishda eng kuchli vosita hisoblanadi.

Kalliforniya qizil chuvalchangidan olingan namunadan "AZAMZAR" krem mazni labaratorik usulda tayyorlandi va teri kasalliklariga Leshmanioz,Vitsiliga, pisoriaz, allergik toshmali kasalliklarni oldini olishda ishlatiladi. Gemotologik ko'rsatkichlar statistik malumotlarga ko'ra 15% yuqori ekanligi isbotlandi. Inson organoizmida eritrotsitlarni hosil bo'lishi, hujayraviylikni oshishi muntazam yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tajriba shuni ko'rsatdiki, chuvalchang yordamida organik moddalarni qisqa ushlab turadigan o'simliklar tez o'zlashtira oladigan biogumusga aylantirish kerak. Biogumlarni tarkibida o'ziga xos bo'lgan o'ziga xos oziqlantiruvchi moddalar mavjud mavjud. Deylik,chorvachilik fermasida 500 bosh qoramol saqlansa, undan chiquvchi gung 200 hektar yerni o'zgartirish mumkin. Shuncha mikdordagi organik biogumus ishlab chiqarishga sarflansa, 1000 hektarni o'zlashtirish mumkin. Bundan 2 yil burun Oltinsoy tumanidagi "Chep" "Guliston" mahallasida tajriba ekperiment ishlari olib borildi kaliforniya qizil chuvalchanglari yetiltirildi va undan biogomos olindi, namunalardan odam kasalliklariga qarshi dori vositalari ishlab chiqildi.

## **XULOSA**

Kaliforniya qizil chuvalchangidan olingan zardob teri kasalliklari uchun juda foydali bo'lib tanadagi viruslarni yengishda, viruslarga chalinishning oldi olinadi va yuqori texnologik ishlab chiqarish asbob uskunalarasi asosida amaliyot ishlari olib boriladi. Bu bo'yicha bir qancha eksperimentlar olib borilmoqda. Surxondaryo viloyatida teri toshmali kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **REFERENCES**

1. N.K. Belamurov. "Полезные калифорниские черви" Москва 2020 год
2. Ч.Н.Виноградский П почвоведение и биогумос Москва 2018 год
3. В.В.Кауричев "Почвоведение" Москва 1998
4. Essential 18000 Medical Words
5. Developing the Major Problems of Food Poisoning Today, their Treatment and Preventive Measures
6. Evacuation of citizens and providing first aid to affected patients in the event of man-made accidents at chemical plants

7. Aids and hiv disease its effects on the human organism, transmission ways, prevention and the most modern drugs that help in the first stages of aids
8. Nurova, Z. A., Toshpo'Latov, T. L. A., Doniyorova, G. E., Bahodirjonov, T. L., & Qilichev, J. F. (2022). ORGANIZMNING ANTIGENLIK, BIOLOGIK, ALLERGIK OMILLARI VA ULARNING TA'SIR DARAJALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 654-657.
9. Kilichev, J., To'raqulova, M., Tursunaliyeva, V., & Menglibayeva, N. (2022). CAUSES, TYPES, SYMPTOMS AND TREATMENT METHODS OF PROSTATITIS DISEASES THAT OCCUR IN THE HUMAN BODY TODAY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 2(10), 18-21.
10. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2481>